

TIJORAT SIRI TO'G'RSIDAGI QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI

Raxmonaliyeva Mukambar Komiljon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11559857>

Annotatsiya:

Ushbu tezisda tijorat siri to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qo'llaniladigan javobgarlik turlari va ularning bir-biridan farqli jihatlari olimlar fikri, amaliyotdagi holatlar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: javobgarlik, fuqarolik javobgarlik, jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, intizomiy javobgarlik.

Abstract:

In this thesis, the types of liability used for the violation of trade secret legislation and their different aspects are explained based on the opinion of scientists and practical situations.

Key words: liability, civil liability, criminal liability, administrative liability, disciplinary liability.

Maxfiy ma'lumotlarga bo'lgan huquqni buzganlik uchun milliy qonunchiligimiz har xil turdagi yuridik javobgarlikni qo'llash imkonini beradi, xususan:

- fuqarolik-huquqiy;
- jinoiy-huquqiy;
- ma'muriy;
- intizomiy.

Beixtiyor savol paydo bo'lishi mumkin: fuqarolik huquqi obyekti bo'lgan tijorat sirlari boshqa huquq sohalarining obyekti bo'lishi mumkinmi? O.Oqyulov va N.Raimovalarning fikriga ko'ra, "bu yerda g'ayritabiiy narsa yo'q. Birinchidan, bugungi kunda har qanday fuqarolik huquqini o'rganish an'anaviy ravishda jinoiy javobgarlikka tortish bilan yakunlanadi; ikkinchidan, intellektual mulk obyektlari (biz konfidensial ma'lumotlar ularga ham tegishli deb hisoblaymiz) hanuzgacha boshqa yuridik fanlar doirasidan tashqarida qolmoqda, shuning uchun fuqarolik huquqi mutaxassislari bu mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari kerak¹.

Maxfiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 191-moddasi asosida

¹ Рaimова Н.Д. Правовой режим конфиденциальной информации в предпринимательских правоотношениях: Дис. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: ТГЮУ, 2012. – С.136.

yuzaga keladi. Jinoyat kodeksining 191-moddasida maxfiy ma'lumotlarni tashkil etuvchi ma'lumotlarni noqonuniy to'plash, noqonuniy oshkor qilish yoki ulardan foydalanish bilan bog'liq jinoyatlar nazarda tutilgan. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoiy harakat formal tarkibli bo'lib, ma'lumotlarni oshkor qilganlik yoki to'plaganlik uchun javobgarlikni belgilaydi, ikkinchi qismi moddiy tarkibli jinoyat hisoblanadi, ya'ni yuqoridagi harakatlarni amalga oshirish natijasida, sir egasiga ko'p miqdorda zarar yetsagina, shu qism bo'yicha javobgarlik belgilanadi².

Intizomiy javobgarlikka kelsak, bugungi kunda ish beruvchining tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun xodimni intizomiy javobgarlikka tortishning qonun bilan belgilangan imkoniyati mavjud. N.S.Gulyayeva to'g'ri ta'kidlaganidek, xodimni intizomiy javobgarlikka tortishning zaruriy sharti xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga ish beruvchining tijorat sirini oshkor qilmaslik majburiyatini kiritish, shuningdek, bunday majburiyatni korxonaning ichki hujjatlarida belgilab qo'yish va xodimni mazkur qoida bilan o'z vaqtida tanishtirishdir³.

Xodim tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilgan taqdirda, uning egasi xodimdan yetkazilgan zararni to'liq qoplashni talab qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi, chunki tijorat sirini oshkor qilish natijasida yetkazilgan zararining asosiy miqdori yo'qotilgan foyda hisoblanadi va mehnat qonunchiligi xodim tomonidan faqat to'g'ridan-to'g'ri haqiqiy zararni qoplashni nazarda tutadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor etilganda, uning egasiga yetkazilgan to'g'ridan-to'g'ri haqiqiy zarar ushbu ma'lumotni moddiy tashuvchisi tomonidan yo'qotilgan xarajatlardan oshmaydi.

Intizomiy javobgarlik ish beruvchi va uning konfidentlari egalari bo'lgan tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik va ularning rozilgisiz ushbu ma'lumotlardan foydalanmaslik uchun ish beruvchi tomonidan belgilangan tijorat siri rejimini bajarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlikda aybdor bo'lgan xodimlarga nisbatan qo'llaniladi⁴.

Amaliyotda tijorat sirlarini saqlash majburiyatini buzgan ishchilarga jarima, to'liq javobgarlikka tortish va boshqa choralar ko'riladi.

² Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Тошкент, ИПТД «Ўқитувчи», 2004. - С. 246.

³ Гуляева Н.С. Коммерческая тайна в предпринимательской деятельности: Сравнительно-правовое исследование законодательства РФ, зарубежных государств и международно-правового регулирования: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук.- М., 2002. - С. 8.

⁴ Бероздина Ю.В. За разглашение коммерческой тайны безопаснее уволить по соглашению сторон // Трудовые споры. Москва, 2010. - № 6. - С. 84-90.

Bu amaliyot noqonuniy hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida intizomiy jazo choralarining to'liq ro'yxati keltirilgan va ularni moddiy javobgarlikka tortish tartibi ham tegishli moddalarida aniq belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, mehnat qonunchiligiga muvofiq, mehnat shartnomasini tuzishda xodimlarning qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan mehnat huquqlari va kafolatlari darajasi pasaytirilishi mumkin emas.

Tijorat siri egasining manfaatlarini himoya qilishning yana bir usuli – tijorat sirini oshkor qilgan ayrim toifadagi xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish imkoniyatidir. Bunga Mehnat kodeksining

161-moddasida belgilangan mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzish oqibatida mehnat shartnomasini korxona, muassasa, tashkilot (filial, tashkilot) rahbari tomonidan bekor qilish mumkinligi haqidagi norma asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida maxfiy axborotga bo'lgan huquqni buzganlik uchun ma'muriy-huquqiy javobgarlik MJtKning 46-moddasida nazarda tutilgan.

Olimlarning qarashlariga ko'ra maxfiy ma'lumotlarga (xususan, tijorat siri) bo'lgan huquqni buzuvchiga ta'sir qilishning ma'muriy tartibi fuqarolik yoki hakamlilik sudida zararni qoplash to'g'risida da'vo qo'yishdan tashqari eng samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan jarayondir.

Shubhasiz, maxfiy ma'lumotlarga bo'lgan huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikni qo'llashda fuqarolik javobgarligi ustuvor ahamiyatga ega. Fuqarolik aylanmasining normal rivojlanishi uning ishtirokchilari o'z majburiyatlarini to'g'ri bajarishlari bilan tavsiflanadi. Majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda, majburiyatlarning buzilishi haqida gap boradi. Bunday huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida sodir etilgan huquqbuzarlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilanadi.

Fuqarolik javobgarligi tushunchasi masalasi huquqshunoslikda munozarali hisoblanadi. Ba'zi mualliflar fuqaroviy javobgarlikni barcha majburiyatlar qat'iy va mas'uliyat bilan bajarilishi nuqta'i nazardan kelib chiqib, ijobiy mas'uliyat deb ta'kidlaydilar.

N.D.Raimovanning qarashlariga ko'ra, majburiyatlarni to'g'ri bajarish va fuqarolik javobgarligi turli xil qoidalarga bo'ysunadi va ushbu jarayonlardagi qarzdorning harakatlari bir xil bo'lishi mumkin emas. Majburiyatlarning to'g'ri



bajarilishi mavjud ekan, javobgarlikka o'rin yo'q. Aksincha, javobgarlikning boshlanishi majburiyatlarning to'g'ri bajarilishini istisno qiladi.

Javobgarlik va shu bilan birga fuqarolik huquqlarini himoya qilish choralari deb atash maqsadga muvofiq bo'lgan fuqarolik huquqlarini himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullarini bir-biridan ajratish lozim.

Fuqarolik javobgarligiga eng to'liq ta'rifni, bizningcha, X.R.Rahmonqulov bergan bo'lib, unga ko'ra "fuqarolik javobgarligi tushunchasi deganda huquqbuzarga nisbatan qo'llaniladigan mulkiy xususiyatdagi sanksiya tushuniladi. Fuqarolik huquqining umumiy tamoyillariga ko'ra, fuqarolik javobgarligi mulkiy xususiyatga ega bo'lib, shartnoma majburiyatlari va shartnomadan tashqari yuzaga keladigan majburiyatlarga nisbatan qo'llaniladi"⁵.

Fuqarolik kodeksining 333-moddasi majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik javobgarligining umumiy asosi sifatida aybni nazarda tutadi. Ushbu moddaning 1-qismi qoidalariga ko'ra javobgarlikdan ozod bo'lishni istagan shaxs o'zining aybsizligini isbotlashi lozim. Fuqarolik huquqi normalariga ko'ra, qarzdor o'z majburiyatlarini buzishda aybdor bo'lgan taqdirdagina javobgar bo'ladi. Agar u majburiyatni buzishda aybdor emasligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Xulosa qilib, tijorat sirlarining maxfiy saqlanishida sir egasi va xodim o'rtasidagi mehnat shartnomasi, tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan sirni himoya qilish mexanizmi, maxfiy ma'lumotlarning muhofazasi ta'minlovchi qonunchilik bazasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tijorat sirlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilishda fuqarolik javobgarligi muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, maxfiy ma'lumotlarni insofsiz olish holatlarida, huquqbuzarlik nafaqat fuqaroviy, balki boshqa javobgarlik turlari yurisdiksiyasiga ham kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Раимова Н.Д. Правовой режим конфиденциальной информации в предпринимательских правоотношениях: Дис. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: ТГЮУ, 2012. – С.136.
2. Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Тошкент, ИПТД «Ўқитувчи», 2004. - С. 246.
3. Гуляева Н.С. Коммерческая тайна в предпринимательской деятельности: Сравнительно-правовое исследование законодательства РФ, зарубежных

⁵ X.Rahmonqulov. Majburiyat huquqi – Toshkent, TDYI, 2005. – B. 123.



государств и международно-правового регулирования: Автореф. дис. ...
канд. юрид. наук.- М., 2002. - С. 8.

4. Бороздина Ю.В. За разглашение коммерческой тайны безопаснее
уволить по соглашению сторон // Трудовые споры. Москва, 2010. - № 8. - С.
84-90.

5. H.Rahmonqulov. Majburiyat huquqi. – Toshkent, TDYI, 2005. – В. 123.

